SURXONDARYO VILOYATI JARQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 9-dekabr | 289-8-112-Q/25 | Jarqo‘rg‘on tuman hokimligi

Jarqo‘rg‘on tumanidagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobi hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan 2026-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 23-iyundagi PF–98-son Farmoniga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish vakolatlari Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o‘tkazilganligi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-son Farmoniga asosan:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy

zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 3 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilishi;

budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Jarqo‘rg‘on tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda Jarqo‘rg‘on tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining Jarqo‘rg‘on tumani hududidagi tashkilotlar bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risidagi quyidagi takliflari ma’qullansin:

xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining uch foizidan oshmagan miqdorida kelgusi yil uchun 119 ta ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish, jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 42,8 foiz (51 kishi);

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 5 foiz (6 kishi);

kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun 51.2 foiz (61 kishi);

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan

mahrum bo‘lgan shaxslar uchun 0 foiz (0 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 0.8 foiz (1 kishi);

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 0 foiz (0 kishi) miqdorida ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantiriladi.

3. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida **quyidagilar:**

davlat tashkilotlari (budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining tayyorligini yil boshlanishidan oldin o‘n kundan kechiktirmay ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Jarqo‘rg‘on tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qiladi;

ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda Jarqo‘rg‘on tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qiladi;

ishga joylashtirish to‘g‘risida Jarqo‘rg‘on tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etadi.

Zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son qaroriga muvofiq aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslarni ish o‘rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag‘larini to‘lab berilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni 3, 13, 34, 38, 39, 40, 41-moddalariga asosan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandi, 2-qismiga asosan, muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha Jarqo‘rg‘on tumani Kengashining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash

tashkilotni zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

8. Jarqo‘rg‘on tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (S.Jumayev):

besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini 1 va 2-ilovalarda ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha Jarqo‘rg‘on tumani qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish ta’minlansin.

9. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb- saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Naimov Farxodjon Abdulla o‘g‘li zimmasiga yuklatilsin.

11. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Jarqoʻrgʻon tuman hokimi **Avazov.E.R**

Jarqo‘rg‘on tumani hokimining
2025-yil 9-dekabrdagi
289-8-112-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Jarqo‘rg‘on tumanida (shahrida) 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari *(budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar)* **tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli**

RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilot STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:					
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		Nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
	ЖАМИ:		**8332**	**187**	**113**	**50**	**5**	**57**	**0**	**1**	**0**
1	1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206859534	102	1	1	1	0	0	0	0	0
2	2-umumiy o‘rta ta’lim maktab	203225036	110	3	1	0	0	1	0	0	0
3	3-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203217741	54	2	1	1	0	0	0	0	0
4	5-umumiy o‘rta ta’lim maktab	203217765	173	5	2	1	0	1	0	0	0
5	6-umumiy o‘rta ta’lim maktab	206859542	82	2	1	0	0	1	0	0	0
6	7-umumiy o‘rta ta’lim maktab	203217734	81	0	1	0	0	1	0	0	0
7	8-umumiy o‘rta ta’lim maktab	206859559	71	3	1	1	0	0	0	0	0

8	9-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9566	66	2	1	1	0	0	0	0	0
9	10-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9574	81	0	1	1	0	0	0	0	0
10	11-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20321 7679	98	3	1	0	0	1	0	0	0
11	12-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9581	98	3	1	1	0	0	0	0	0
12	13-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9598	78	2	1	0	0	1	0	0	0
13	14-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9606	81	2	1	0	0	1	0	0	0
14	15-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20321 7726	139	4	1	1	0	0	0	0	0
15	16-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9614	71	1	1	1	0	0	0	0	0
16	17-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9621	77	1	1	1	0	0	0	0	0
17	18-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9638	58	1	1	0	0	1	0	0	0
18	19-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20321 7719	127	1	1	0	0	1	0	0	0
19	20-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20321 7702	78	2	1	1	0	0	0	0	0
20	21-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20321 7694	140	5	1	0	0	1	0	0	0
21	22-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9645	52	1	1	1	0	0	0	0	0
22	23-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9653	73	3	1	0	0	1	0	0	0
23	24-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9660	64	1	1	0	0	1	0	0	0
24	25-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9677	86	0	1	1	0	0	0	0	0
25	26-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9684	85	2	1	1	0	0	0	0	0
26	27-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206859 692	55	2	1	1	0	0	0	0	0

27	28-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9700	115	1	1	0	0	1	0	0	0
28	31-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9732	51	0	1	1	0	0	0	0	0
29	32-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20674 9859	105	1	1	1	0	0	0	0	0
30	33-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9756	84	0	1	1	0	0	0	0	0
31	34-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9764	58	3	1	0	0	1	0	0	0
32	35-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9771	69	2	1	0	0	1	0	0	0
33	36-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9788	87	0	1	0	0	1	0	0	0
34	37-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9795	70	3	1	0	0	1	0	0	0
35	38-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9804	77	2	1	1	0	0	0	0	0
36	39-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9811	63	3	1	1	0	0	0	0	0
37	40-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9828	65	1	1	1	0	0	0	0	0
38	41-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9835	74	0	1	1	0	0	0	0	0
39	42-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9843	72	2	1	0	0	1	0	0	0
40	43-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20321 7686	68	3	1	0	0	1	0	0	0
41	44-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9850	46	1	1	1	0	0	0	0	0
42	46-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9874	98	1	1	1	0	0	0	0	0
43	47-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9882	72	0	1	0	0	1	0	0	0
44	48-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9899	121	4	1	0	0	1	0	0	0
45	49-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9907	44	2	1	0	0	1	0	0	0

46	50-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9914	37	1	1	0	0	1	0	0	0
47	51-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9922	44	0	1	1	0	0	0	0	0
48	52-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9939	44	2	1	0	0	1	0	0	0
49	53-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9946	50	0	1	0	0	1	0	0	0
50	54-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9954	55	2	1	1	0	0	0	0	0
51	55-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9961	43	1	1	1	0	0	0	0	0
52	56-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20685 9978	92	3	1	0	0	1	0	0	0
53	57-umumiy o‘rta ta’lim maktab	30342 2080	48	1	1	0	0	1	0	0	0
54	58-umumiy o‘rta ta’lim maktab	30576 2852	44	1	1	1	0	0	0	0	0
55	59-umumiy o‘rta ta’lim maktab	30576 2282	35	0	1	1	0	0	0	0	0
56	60-umumiy o‘rta ta’lim maktab	30576 1054	48	0	1	0	0	1	0	0	0
57	61-umumiy o‘rta ta’lim maktab	30664 6322	75	3	1	0	0	1	0	0	0
58	62-umumiy o‘rta ta’lim maktab	30664 6418	59	0	1	1	0	0	0	0	0
59	63-umumiy o‘rta ta’lim maktab	30664 6425	46	0	1	0	0	1	0	0	0
60	64-umumiy o‘rta ta’lim maktab	30664 7352	44	0	1	0	0	1	0	0	0
61	65-umumiy o‘rta ta’lim maktab	30669 7995	33	1	1	1	0	0	0	0	0
62	67-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20219 9584	44	1	1	0	0	1	0	0	0
63	68-umumiy o‘rta ta’lim maktab	20732 5154	118	2	1	1	0	0	0	0	0
64	"MAKTABGACHA VA MAKTAB	30985 7628	75	2	1	1	0	0	0	0	0

	TA'LIMI VAZIRLIGI HUZURIDAGI IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI TIZIMIDAGI JARQO`RG'ON TUMAN IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI										
65	Jarqo‘rg‘on tuman 1-son POLITEXNIKUMI	200489422	103	4	1	0	0	1	0	0	0
66	Jarqo‘rg‘on tuman 2-son POLITEXNIKUMI	205813799	75	3	1	0	0	1	0	0	0
67	1-sonli "ALPOMISH" maktabgacha ta'lim tashkiloti davlat muassasasi	207025740	30	0	1	1	0	0	0	0	0
68	2-sonli "OLMAXON" maktabgacha ta'lim tashkiloti davlat muassasasi	207004410	30	0	1	0	0	1	0	0	0
69	7-sonli "OLTIN KALITCHA" maktabgacha ta'lim davlat muassasasi	207004403	28	0	1	1	0	0	0	0	0
70	9-sonli "TABASSUM"	207025757	25	0	1	1	0	0	0	0	0

	maktabgacha ta'lim tashkiloti davlat muassasasi										
71	10-sonli "NAFOSAT" maktabgacha ta'lim tashkiloti davlat muassasasi	30548 5975	23	0	1	1	0	0	0	0	0
72	14-sonli "GULNORA" maktabgacha ta'lim tashkiloti davlat muassasasi	20702 7524	28	0	1	0	0	1	0	0	0
73	16-sonli "GULLOLA" maktabgacha ta'lim tashkiloti davlat muassasasi	20708 2205	25	0	1	1	0	0	0	0	0
74	32-SONLI SHUKRONA Davlat muassasasi	30313 8814	29	1	1	0	0	1	0	0	0
75	40-sonli "KAMALAK" maktabgacha ta'lim tashkiloti davlat muassasasi	20708 4470	31	1	1	1	0	0	0	0	0
76	"JARQO`RG`ON MAISHIY XIZMAT KO`RSATISH KASB-XUNAR KOLLEJI" DAVLAT MUASSASASI	20048 7228	48	2	1	0	0	1	0	0	0
77	JARQO'RG'ON TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASI	20048 7354	2482	54	21	4	4	13	0	0	0
7	SURXONDARY	20048	138	5	1	0	0	1	0	0	0

8	O VILOYAT BOLALAR-FTIZIATRIYA SIHATGOHI	7361									
79	"MADANIYAT BO`LIMI" DAVLAT MUASSASASI	20048 7647	72	2	2	1	0	1	0	0	0
80	"JARQO`RG`ON TUMAN YO`LLARDAN FOYDALANISH " DAVLAT MUASSASASI	20048 8162	67	1	2	1	0	1	0	0	0
81	JARQO`RG`ON TUMAN "OBODONLASH TIRISH" DAVLAT MUASSASASI	20654 1472	186	7	6	1	1	3	0	1	0
82	"AMU-SURXON IRRIGATSIYA TIZIMLARI HAVZA BOSHQARMASI HUZURIDAGI AMU-ZANG IRRIGATSIYA TIZIMI BOSHQARMASI " DAVLAT MUASSASASI	20728 9286	159	6	4	4	0	0	0	0	0

Jarqo‘rg‘on tumani hokimining
2025-yil 9-dekabrdagi
289-8-112-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Jarqo‘rg‘on tumanida (shahrida) 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (*davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno)*** tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli**

RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilot STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:			
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		Nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar
ЖАМИ:			**269**	**2**	**6**	**1**	**1**	**4**	**0**
1	"SURXON TEKS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	304868317	269	2	6	1	1	4	0